

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLYI VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI HUZURIDAGI OLYI TA'LIM  
TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH  
VAULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH  
BOSH ILMYIY-METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA ENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**«LIBOS DIZAYNI» modulidan**

## **O' Q U V – U S L U B I Y M A J M U A**

**Tuzuvchi: prof. X.X.Komilova**

**Toshkent 2015**

## Mundarija

<b>IShChI O'QUV DASTURI</b> .....	3
1-Mavzu: Dizayn tarixi.....	6
2-Mavzu: Dizaynda uslub va uslublash.....	11
3-Mavzu: Zamonaviy kostyumda uslubiy echimlari.....	15
4-Mavzu: Yagona buyum, komplekt, ansambl va kolleksiyani loyihalash asoslari.....	22
<b>TEST SAVOLLARI</b> .....	22

## ISHCHI O'QUV DASTURI

### Dasturning asosiy maqsadi va vazifalari

Oliy ta'lim muassasalari umumkasbiy va maxsus fanlardan dars beruvchi pedagoglar malakasini oshirish kursining **maqsadi** – pedagogik faoliyatida nazariy va kasbiy tayyorgarlikni ta'minlash va yangilash, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirishga qaratilgan.

Oliy ta'lim muassasalari umumkasbiy va maxsus fanlardan dars beruvchi pedagoglar malakasini oshirish kursining **vazifasi** – pedagogik kadrlar tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar, ta'lim va tarbiya haqidagi hujjatlar, pedagogika va psixologiyaning dolzarb muammolari va zamonaviy konsepsiyalari, amaliy xorijiy til, xorijiy ta'lim tajribasi, pedagogning shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalash, pedagog kadrlarning malakasini oshirish sifatini baholash ishlari, yengil sanoat texnologiyasidagi innovatsiyalar va dolzarb muammolar mazmunini o'rganishga yo'naltirishdan iborat.

#### **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:**

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ta'lim sohasida davlat siyosati va boshqa qonunchilik hamda huquqiy-me'yoriy hujjatlarni;
- “Ta'lim to'g'risida”gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va boshqa qonun hujjatlarining qabul qilinishi, mohiyati va ahamiyatini;
- Dizayn tarixi;
- Dizaynda uslub va uslublash;
- Zamonaviy kostyumda uslubiy yechimlar;
- Yagona buyum, komplekt, ansambl va kolleksiyani loyihalash asoslari;
- Yagona buyum, komplekt, ansambl va kolleksiyani loyihalash asoslari;
- pedagogik mahorat asoslarini **bilishi** kerak.

#### **Modulning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

Mazmuni o'quv rejadagi mutaxassislik fanlarining barcha sohalari bilan uzviy bog'langan holda ularning nazariy asoslarini ochib berishga, pedagoglarning ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda me'yoriy-huquqiy asoslar bo'yicha umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

#### **Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” hamda ta'lim-tarbiyaning milliy g'oya negizlariga tayangan holda amalga oshirish konsepsiyasida o'z ifodasini topadi.

## Modul bo'yicha bo'yicha soatlar taqsimoti

Ushbu o'quv modulida tinglovchining o'quv yuklamasi – 10 soat bo'lib, shundan amaliy mashg'ulotlar 6 soatni hamda mustaqil ta'lim 2 soatni, ko'chma mashg'ulot 2 soatni tashkil etadi. Nazariy mashg'ulot nazarda tutilmagan.

### Nazariy va amaliy mashg'ulotlar mazmuni

№	Modul birliklari nomi va tarkibi	Mashg'ulot turi	Soatlar miqdori
1	Dizayn tarixi	Amaliy	2
2	Dizaynda uslub va uslublash	Amaliy	2
3	Zamonaviy kostyumda uslubiy yechimlar	Amaliy	2
4	Yagona buyum, komplekt, ansambl va kolleksiyani loyihalash asoslari	Ko'chma mashg'ulot	2
<b>Jami</b>			<b>8</b>

### Mustaqil tayyorgarlik mavzulari

№	Modul birliklari bo'yicha mustaqil tayyorgarlik mavzulari	Soatlar miqdori
1.	Yagona buyum, komplekt, ansambl va kolleksiyani loyihalash asoslari	2
<b>Jami</b>		<b>2</b>

### Amaliy mashg'ulot mavzusi

“Libos dizayni” modulida amaliy mashg'ulotlar dizayn tarixi, dizayn va uning bugungi kundagi ahamiyati, liboslar dizayni, ularning tarixi, qadimiy o'zbek milliy liboslari. Dizaynda uslub va uslublash tushunchalari. Bugungi kun zamon talablari asosida yaratilayotgan liboslar va ulardagi milliylikning aks etishi. Zamonaviy kostyumda uslubiy yechimlar hamda soha bo'yicha malaka ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

### Ko'chma mashg'ulot mazmuni

“Libos dizayni” modulida ko'chma mashg'ulotlar zamonaviy jixozlar bilan jixozlangan Yengil sanoan korxonalarini, Yengil sanoat hamda Dizayn yo'nalishiga moslashgan kasb hunar kollejlari hamda “Liboslar Dizayni” kafedrasini bazasida olib boriladi.

## Mustaqil ta'lim **mazmuni**

“Libos dizayni” modulida mustaqil ta'lim mashg'ulotlar Liboslar dizayni sohasidagi yagona buyum, komplekt, ansambl va kolleksiyani loyihalash asoslari boyicha amalga oshirilayotgan ishlar, Yagona buyumlar loyihalash zaruriyatiga sabablar. Ansambl atamasining mohiyati. Ansamblning yaxlitligi. Komplekt atamasining mohiyati. Komplekt yaxlitligi bo'yicha o'z malaka va ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

### KALENDAR REJA

<b>№</b>	<b>Mavzular</b>	<b>Mashg'ulot turi</b>	<b>Soati</b>	<b>O'kaziladigan muddati</b>
1	Dizayn tarixi	Nazariy	2	Ikkinch hafta
2	Dizaynda uslub va uslublash	Nazariy	2	Ikkinch hafta
3	Zamonaviy kostyumda uslubiy yechimlar	Amaliy	2	Uchinchi hafta
4	Yagona buyum, komplekt, ansambl va kolleksiyani loyihalash asoslari	Ko'chma mashg'ulot	2	To'rtinch hafta
<b>Jami</b>			<b>8</b>	

#### **Normativ-huquqiy hujjatlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 fevraldagi “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi 25-sonli Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 20 maydagi “Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risidagi” PQ-1533-son Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 26 sentyabrdagi “Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 278-sonli Qarori.

#### **Adabiyotlar:**

1. Komilova X.X., Xamroeva N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash»

T.: «Moliya» 2003, - 173 b.

2. Xasanboeva G.K. Kostyum tarixi – T. : O'zbekiston, 2002, - 314 b.
3. Rasulova M. «Tikuv buyumlari texnologiyasi» T.: 2006, - 251 b.
4. Koketkin P.P. Odejda: Texnologiya-texnika, protsesso'-kachestvo. M.: Izd. MGUDT, 2001, - 193 b.
5. Koketkin P.P. , Safronova I.V., Kochegura T.N. Odejda: texnologiya – kachestvo. M.: Izdatelstvo «Sputnik», 2001, - 175 b.
6. M. Sh. Jabborova «Tikuvchilik texnologiyasi», Oliy o'quv yurtlari uchun darslik .T.: «O'zbekiston» 1994, - 317 b.
7. Shveytnaya promo'shlennost. Jurnal
8. Moda jurnallari.

### **Internet ma'lumotlari:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot markazi sayti: [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat Hokimiyati portali: [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati, 2004, UNDP DDI: Programme [www.lugat.uz](http://www.lugat.uz), [www.glossaiy.uz](http://www.glossaiy.uz)
4. O'zbek internet resurslarining katalogi: [www.uz](http://www.uz)
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
6. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
7. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
8. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
15. [www.legprominfo.ru](http://www.legprominfo.ru)
16. [www.textil-press.ru](http://www.textil-press.ru)
17. [www.fatex.ru](http://www.fatex.ru)

### ***1-Mavzu: Dizayn tarixi***

Reja:

1. Dizayn va san'at orasidagi farqi.
2. Texnikaviy inqilobni san'atga ta'siri
3. Dizayn asoschilari.
4. Zamonaviy dizayn muammolari.

### **Tayanch iboralar**

dizayn, san'at, asoschilar. madaniyat, sanoat, inqilob.

Dizayn va san'at orasida jiddiy farqlari mavjud: dizayn jamoat va insonning aniq talablari bo'yicha yangi vazifalarni echishni ko'zda tutadi. Dizayn – bu san'atning o'zgacha turi bo'lib buyum muhitini yaratadi.

Dizaynning tarixi insoniyatning tarixi bilan chambarchas bog'lik. Odamzod, qayerda bo'lmasin, o'z buyumlarini tashqi ko'rinishiga e'tibor bergan, va shu sababli dizaynni paydo bo'lishiga asos bo'lgan. Xozirgi tushuncha bo'yicha dizaynni shakllanishi uchun mahsus sharoitlar, talablar va ko'rsatmalar bo'lishi lozim.

XVIII – XX asrlardagi sanoat inqlobi va ilmiy kashfiyotlar yangi texnikaviy asboblardan va texnologiyalarni yaratilishiga sabab bo'ldi. Texnikaviy taraqqiyot odamlarni hayotiga kirdi va ularni dunyoqarashiga ta'sir etdi. Ammo, birinchi sanoat inqilobining natijalari ko'idagini ayyon qildi: estetik nuqtai nazaridan sanoat maxsulotlari xunarmandlar ishlab chiqargan buyumlardan sifati ancha past. Yuqori ma'lumotli shahslar mashinalarni shiddatli kirishiga qarshi bo'lishgan. Ularni orasida ingliz faylasufi D.Ryoskin (1819-1900) ajralib turardi. U yangi mashina texnikasini rad etardi. Uning fikri bo'yicha qo'l mehnati yo'qolishi bilan odamlar mashinaning qo'shimcha qismi bo'lib qolishadi. Texnikani rivojlanishi bilan madaniyat inqirozini Gyote va Shiller oldindan sezishgan. Ularning fikri bo'yicha madaniyatni eng ulug' vazifasi – insonning fizik va moddiy muhitida shakl estetik qonunlarga buysunish lozim, chunki faqat utilitarlikdan emas, balki estetiklikdan ahlokiy xolat rivojlanishi mumkin. XIX asrning 60-70 yillarida ingliz shoir va rassom U.Morris D. Ryoskinning ta'limini Angliyadan tashqariga chiqardi, "San'at va Er go'zalligi" kitobini yozib. Undan keyin "San'at va xunar" amerika yo'nalishining yulboshchilarini fikri bo'yicha mashinada ishlab chiqariladigan maxsulotlari insonni estetik va ahlokini buzadi va faqat qo'lda ishlab chiqarilgan buyumlarni estetik sifati yuqori bo'lib, iste'molchini boyitadi.

Loyiha madaniyatining ikki qismi – texnika va san'at – bir biridan uzoqlanib, alohida ko'rib chiqilardi va bir biriga qarshi quyilardi. XX asrda ularni birlashtirishga harakat qilina boshlandi. Texnika va san'atni birlashuviga mahsus kumitalar tashkil etildi. 1849 yildan boshlab Londonda buyum dunyosini estetik muammolariga bag'ishlangan "Journal of Design and Manufactures" jurnali chiqadigan bo'ldi. Shu vaqtda iste'molga "industrial art" degan tushuncha kirdi.

Demak, dizayn jamiyatni estetik talablari va mashinada ishlab chiqarish chorrahasida tug'ilgan. Buyum muhitini shakllantirish sohasidagi badiiy sharoitning inqirozi dizaynni paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Yuzaga kelgan sharoitdan chiqish yuli faqat yangi faoliyat turini rivojlanishida mumkin edi, qayerda tipaviy sanoat mahsulotiga estetik xususiyatlarini bahsh etish edi. Birinchi urinishlar shunday faoliyat sohasida o'rta asr romantik xunarmand an'analarni tiklash bulgan. Kelajak dizaynning ildizi dunyoni ratsional qayta qo'rish g'oyasi, muhitni ifoda etish ob'ektni har tomonlama estetik ta'sir etishi bilan bog'liq bulgan.

XIX asrni oxirida evropa mamlakatlarini modern badiiy uslubi qamrab olgan. Uni asosida fikirlash shakllarga asoslangan. Ayni modern odamlarda, rassomlarda ideal sifatida shaklni sezish dizaynni tadbiiq etilishiga imkoniyat berdi.

Modernda bino elementlari konstruktiv va dekorativga bo'lindi. Barcha utilitar elementlari estetik ma'noli bo'lib yaratilardi.

Kelajak dizayner ko'rsatmalari va muamolari nemis badiiy birlashmalari "Verkbund" (1907 y.) va "Bauhaus" namoyon qilishdi.

"Verkbund"ga sanoat xodimlari, me'morchilar, rassomlar va kommertsantlar kirar edi. Ularning fikri buyicha sanoatda ishlab chiqarishda iqtisodiy va estetik talablar o'zaro bog'lanmasa, xalqaro bozorda yutish mumkin emas. "Verkbund" asosiy vazifalarni aniqladi: maxsulotlarni ishlab chiqarishni xunarmandlikdan sanoat yullariga o'tkazish. "Verkbund"ni asoschisi G.Mutezius "estetik fundamentalizmning" printsiplarini aniq ta'riflab berdi: buyumning shakli uning mohiyatidan, tuzilishidan, texnologiyasidan, nimaga mo'ljallanganidan kelib chiqadi. 1914 yilda firmaning badiiy direktori P. Bernesni birinchi dizayner deb hisoblansa bo'ladi. Uning amaliy faoliyati yangi faoliyat turi – dizaynni - shakllanishiga katta ahamiyatga ega. Bu firmani faoliyati birinchi jahon urshi 1914 yilda to'xtadi.

Ammo urush tugaganda muammo qolgan edi. 1919 yilda kichkina Germaniya shaxari Veymarda "Bauhaus" (qurilish uy) nomli sanoatda ishlagan rassomlarni tayyorlaydigan birinchi o'quv maskani ochildi. P.Bernesning shogirti V.Gorpius "Bauhaus"ni tashkilotchisi va bosh nazaryachisi bo'lgan. Qisqa vaqt maboynda dizayn sohasida "Bauhaus" uslubiy markaz bo'ldi. XX asr yirik madaniyat arboblari bu erda o'qituvchi bo'lgan: me'morchilar Mis van der Roz, Ganes Mayer, rassomlar V.Kandinskiy, P. Klee, P.Mondrian. Ular plastik san'atda va buyum muhitida shakllantirish universal metodlarni qidirishgan. Ular turar joylarni, ommaviy sanoat mahsulotlarni: gazlamani, mebelni, dekorativ rangtasvir va plastikani loyihalashgan, chunki bular barchasi bir muhitni buyumlari. 1930 yilda G.Mayer ketgandan sung Mis van der Roz firmani boshqargandi. 1932 yilda "Bauhaus" Berlinga kuchdi va 1933 yilda natsistlar firmani yopishdi. G.Mayer bir guruh o'qituvchilari bilan Rossiyaga ko'chib keldi. Ulardan ko'plari Moskvada 1920 yilda tashkil etilgan davlat oliy badiiy - texnikaviy ustaxonalarida (VXUTEMAS) o'qituvchilik qilishgan.

Dizayn - bu zamonaviy sanoatda ishlab chiqarishda yo'qolgan madaniy muvozanatni tiklash usulidir. Aynan shuning uchun go'zallikni funktsional asoslangan buyumlar shaklida qidira boshlashdi. "Bauhaus" 1920 – 1950 yy. evropa dizayn aksini namoyon etgan.

1937 yilda "Bauhaus" AQShga emigratsiya etgan. Ular evropa dizaynning asoslarini amerikada o'zlashtirishgan. Bunga 1930 yildagi Amerikadagi depressiya sabab bo'lgan, chunki maxsulotni sotish qiyin bo'ldi. Biznesmenlar rassomlarni ishga olib, maxsulotga estetik xususiyatni berishga intilishdi.

Inqiroz payitda maxsulot ishlab chiqaruvchilar o'z buyumlarini dizayniga e'tibor beradigan bo'lishdi. Bunga yorqin misol, G.Ford "Djenra motors" tomonidan raqobati va bozorni mashinalar bilan to'ganligi sababli "T" markali mashhur avtomobollarni o'rniga 18 million dollarni sarflab yangi kelishgan "A" modelini chiqaradigan bo'ldi.

Aynan inqiroz payitda hozirgi dizayn konteksti tashkil etilgandi. Dizayn faoliyatining shiddatli tafakkuri asosan 1920–1930 yy. Amerikada bo'lgan. U, eng avvalo, kommertsiya dizaynida yoki "industrial san'atida" o'z ifodasini topgan. Har bir korxonada mahsus guruhlar tashkil etilgan, ular "staff-dizayn" - dizayn



vazifalarini bajarishgan. Mahsus buyurtma bajaradigan mustaqil dizayn firmalari ham barpo etilgandi.

Demak, dizayn uch ma'noli sohalarning, uch turli madaniy xarakter chorrasida barpo etilgan: san'at, ommaviy sanoat korxonalar va buyumlarga mujassamlangan ommaviy ong.

Rossiyada dizayn 1922–1933 yillarda tashkil etilgan. Yangi mutaxassisliklar va metodik ishlanmalar paydo bulgandi. VXUTEMASni bitirgan me'mochilar, san'atshunoslar, rassomlarni oldida qo'lgan asosiy vazifa - san'atni yangi turmush bilan bog'lash va uni sanoatga kiritish. Ammo u vaqtda bu vazifani echishga imkoniyat yo'q edi. Ularning loyihalari asosan utopik edi va eski madaniyatni barbod etib, yangi kelajak madaniyatni barpo etish edi.

San'atda bu oqimni yorqin namoyandalari E.Tatlin (1885 - 1953), A. Rodchenko (1891 - 1956), L. Popova (1889 - 1924) bo'lgan. L.Popova birinchi rassom–konstruktor bo'lgan va korxonaga kelgan birinchi dizayner bo'lgan. U yangi gazlamalar naqshi va ko'ylaklarni ratsional modellarni yaratgan.

Sovet davrida dizaynni rivojlanishi qiyinlik bilan utgan, chunki vayronalardan sung sanoat endi oyoqqa turar edi. Ikkinchi jaxon urushdan keyin 1962 yilda dizaynni sanoatga tadbiiq etish tug'risida qaror chiqqan edi. Shuning uchun g'arb mamlakatlardan va Amerikadan orqada qolgan edik.

Mustaqllika erishgandan sung xorijiy mamlakatlar bilan aloqalar kuchaygandi. Xorijdan kelgan maxsulotlar maxalliy maxsulotlarga raqobatdosh bo'lgani bois, buyumlar dizayniga e'tibor beriladigan bo'ldi.

O'zbekiston maxsulotlarni dizayniga xam e'tibor beriladigan bo'ldi. Dizaynerlar uyushmasi tashkil etildi va bu uyushma xalqaro dizaynerlar uyushmasigi kiritildi.

X.X.Komilova boshligida respublikamizda “Osiyo ramzi” modelerlar uyushmasi tashkil etildi. Bu tashkilot O'zbekiston libos dizaynerlarni boshqardi va milliy an'analarga asoslanib, “O'zbek modasini” dunyoga namoyon etishdi. 2005 yildan boshlab, “Art week” qoshida Toshkentda har yili “Style Uz” va “Bolajonlar, shirintoylar” moda festivallari o'tqaziladi. U erda, milliy liboslar an'anasiga tayanib, milliy (xon–atlas, adras, shoyi, beqasam) va zamonaviy gazlamalaridan zamonaviy va milliy liboslar namoyish etiladi.

#### Nazorat savollari

1. San'at turlarini ta'riflab bering.
2. Dizayn va san'at orasidagi farqi.
2. Texnikaviy inqilobni san'atga ta'siri.
3. Dizayn asoschilari.
4. Zamonaviy dizayn muammolari.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Komilova X.X., Xamraeva. N.K. «Tikuv buyumlarini kontsruktsiyalash» Darslik.Toshkent 2011 y.

2. Rasulova M.K. «Tikuv buyumlari ishlab chiqarish texnologiyasi» O'quv qo'llanma Toshkent. 2011y
3. Madjidova Sh.G., Rasulova M.K. «Texnologik jarayonlarni loyixalash».Uslubiy qo'llanma. Toshkent 2011y.
4. Israilova B.G., Asadullaeva M.A. «Tikuv buyumlar texnologiyasi» fani bo'yicha tikuv buyumlarning bo'linmas operatsiyalarini ketma-ketligi to'plami. Uslubiy qo'llanma. Toshkent 2013 y.
5. A.I.Martinova, E.G.Andreeva. «Kontsruktivnoe modelirovanie odejdi» M.MGALP 2002 y. Darslik, Rus. 28 ekz.
6. X.X.Komilova, N.K.Xamraeva «Tikuv buyumlarini kontsruktsiyasi» T.o'qituvchi 2002 y. Darslik uzb. 150 ekz.
7. M.Sh.Jabbarova «Tikuvchilik texnologiyasi» T.o'qituvchi 1994 y. Darslik. O'zb. 100 ekz.

## ***2-Mavzu: Dizaynda uslub va uslublash***

Reja:

1. Uslub tushunchasini ta'riflash.
2. Uslublash tushunchasini ta'riflash.
3. Katta uslublar.
4. Firma uslubi.

### **Tayanch iboralar**

dizayn, ijod, kompozitsiya, badiiy, usul, uslub, uslublash, kostyum, shakl, fikr, g'oya, funktsiya, kutyure, pret-a-porte.

*Dizaynda uslub va uslublash.* San'atda uslub asosiy tushunchalarnidan biri bo'lib, vaqt mobaynida va jamiyatda kostyum evolyutsiyasi bilan bog'liq. Davr uslubi, tarixiy kostyum uslubi, moda uslubi, dizayner uslubi, firma uslubi tushunchalar ham uchraydi.

Uslub – badiiy fikrlashning eng umumiy kategoriyasi; san'atda muayyan davr yoki asarning tasviriy vositalarning g'oyaviy birligi; buyum muhitining badiiy-plastik o'xshashligi. Uslubda har bir davrni dunyoqarashlar, g'oya va qarashlari aks etiladi. Uslub – davrning badiiy tili, davrning badiiy ifodasi. Unda muayyan tarixiy davrning estetik ideali namoyon bo'ladi. Uslub barcha san'at turlariga o'zgacha ta'sir etadi, uni “davrning katta badiiy uslubi” deb atashadi. San'at tarixida davrga mansub “katta uslublar” birin ketin bo'lgan: Qadimiy Misr, Antik, Roman, Gotik, Renessans, Uyg'onish, Barokko, Rokoko, Klassitsiizm, Ampir, Modern. Ushbu uslublar kostyum turini, shaklini, proportsiyalarini, qo'llagan matolarini, kiyish usulini va h.k. belgilagan.

Har bir uslub rivojlanish jarayonida bir necha bosqichlardan iborat: paydo bo'lishi, avjga etishi, inqirozga uchrashi. Shuni e'tiborga olish lozimki, har bir davrda bir necha uslublar birgalikda mavjud bo'lgan: oldin bo'lgan, ayni shu vaqtda xukumronlik qilgan va kelajak uslubning elementlari. Har bir mamlakatda badiiy madaniyati rivojlanish darajasi, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, boshqa mamlakatlarda madaniyati bilan aloqaligi bilan bog'liq badiiy uslublarni evolyutsiya dinamikasi o'ziga xos bo'lgan: masalan, XV asrda Italiyada Renessans uslubi avjga chiqqan bo'lsa, Frantsiyada - kech Gotika, Germaniyada esa - Gotika XVI asrni o'rtasigacha bo'lgan, O'rta Osiyoda esa - Renessans uslubi IX asrdan boshlab to XVII asrga qadar rivojlangan.

“Katta uslub” doirasida “mikrouslublar” rivojlanishi mumkin. Masalan, Rokoko uslubi doirasida (1730-1750 yy.) “shinuazri” (xitoy uslubiga o'xshash) va “tyurkeri” (turkcha uslub); modern uslubi doirasida (1890-1900 yy.) “neogotika”, “neorus” va geometrik uslublari; “art deko” uslubda (1920 yy.), Misr, rus, afrika, geometrik va b. mikrouslublar mavjud bo'lgan.

Ammo, tarixiy davrlar o'tishi bilan “katta uslub”lar o'tmishda qoldi: jamoa va insonni turmush sur'ati tezlashishi, informatsion jarayonlarni rivojlanishi, yangi

texnologiyalar va ommabop bozorni ta'siri, yagona uslubga emas, balki ko'p uslubiy shakllar va plastik siymolarni mavjud bo'lishiga olib keldi.

XIX asrda ilgari bo'lgan uslublarga asoslangan uslubiy yo'nalishlar paydo bo'la boshladi (eklektizm, o'tmishga berilish va b.). Eklektika – bu har xil uslublarni aralashmasi, bir necha uslubni baravariga mavjudligi. XX asrda eklektika madaniyatini muhim xususiyatlaridan biri bo'ldi, ayniqsa asrni oxirida – postmodernizm madaniyati modaga ta'sir etgandi.

XX asrda “katta uslub”larni o'rniga san'atda avangard san'atni innovatsion mohiyati bilan bog'liq yangi kontseptsiyalar keldi: abstraksionizm, funksionalizm, syurrealizm, pop-art, op-art va h.k. Modada har bir o'n yillikda “mikrouslub”lar mavjud bo'lgan: 1910 yy. - neo-grek va sharq uslubi; 1920 yy.- rus, misr, lotinamerika, afrika; 1930 yy.- neoklassitsizm, o'tmishga berilish, lotinamerika, syurrealizm; 1940 yy.- kantri, vestern; 1950 yy.- Nyu Luk, Shanel; 1960 yy. – kosmik; 1970 yy. romantik, retro, folk, etnik, sport, djins, diffuz, militari, ichki kiyim, disko, safari, pank; 1980 yy. – ekologik, yangi qaroqchilar, neoklassik, neobarokko, seksi, korset; 1990 yy. – granj, etnik, neo-pank, kiberpank, glamur, o'tmishga berilish, neo-xippi, minimalizm, dekonstruktivizm va b.

Har bir mavsumiy nashrlar yangi uslublarni targ'ibot etadi, dizaynerlar esa o'z uslubini yaratishga intilishadi. Ammo, barcha uslublar tasodifiy paydo bo'lmaydi. Siyosiy voqealar, ijtimoiy muammolar va b. uslubni shakllanishiga ta'sir etib, uni aktual qiladi. Modali uslublarda insonning siymosi va turmush tarzini o'zgarishi hozirgi zamonda uni o'zni va va roli bo'yicha tasavvuri ifodalanadi. Yangi uslublarni paydo bo'lishiga yangi materiallar va ularga ishlov berish usullari ta'sir etadi.

Ko'p uslublar orasida klassik uslubni ajratish mumkin: ular uzoq vaqt davomida aktualligini saqlab, modada bo'ladi. Klassik uslub muayyan xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin: universallik, ko'pfunksiyalik, shakl yaxlitligi va oddiyligi, odamni talablarini qondiradigan. Klassik uslubga, masalan, ingliz, Shanel usublari kirishi mumkin.

“Katta badiiy uslub”lar va “mikrouslub”lardan tashqari “muallif uslubi” yoki “ustaning individual uslubi” degan tushunchalar bor. Bu uslub turida muallifning mavzulari, g'oyalari, qo'llagan tasviriy vositalari va badiiy usullari namoyon etiladi. K.Shanel, K.Dior, A.Kurrej, Dj.Versache, K.Lakrua, V.Zaytsev, V.Yudashkin va b. ijodi muallif uslubi bilan ajralib turadi.

Zamonaviy buyum muhitni badiiy-plastik bir xilligi “dizayn-uslub” deb ataladi. Bu uslub texnikaviy taraqqiyotni o'zlashtirish natijasini namoyon etadi. U yangi mato va texnologiyalar bilan bog'liq bo'lib, buyumlarni tashqi ko'rinishini faqat o'zgartirmasdan, insonni hayotiga yangi xossalarni baxsh etadi va buyum va insonni o'zaro aloqasiga ta'sir etadi.

Dizaynda “*firma uslubi*” degan tushuncha ham bor – bu firmani ishlab chiqargan mahsulotiga uslubiy birlik mansub. Firma uslubi konkret mualliflar tomonidan yaratiladi va sub'ektiv xossaga egadir.

“Uslub” tushuncha bilan “uslublash” tushunchasi chambarchas bog'liq. Yangi san'at asrlari yaratilganda uslublash badiiy usul sifatida qo'llanadi. *Uslublash* –

ma'lum uslubning siymosi va formal belgilarini yangi, unga monand emas badiiy kontekstda g'arazli maqsad bilan qo'llash.

Bu usul timsol bilan erkin foydalanishni, transformatsiya etishni ko'zda tutadi, asos qilib olingan uslub bilan aloqani uzmasdan. Bu holda ijodiy manba doimo tanish bo'ladi. Badiiy vosita sifatida uslublash klassitsizm, neoklassitsizm va b. qo'llangan.

Zamonaviy dizaynda ommabop iste'molchiga mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarishda bu usul o'z ahamiyatini saqlab qolgan, ayniqsa, kommertsiyachilik dizaynida (" korporativ" dizaynda).

*Dizaynda uslublash* – bu birinchidan buyumni loyihalashda muayyan uslub xossalarini ongli qo'llash (bu ma'noda ko'pincha "stayling" tushunchasi qo'llanadi); ikkinchidan – madaniy namunani ko'rinarli xossalarini to'g'ridan-to'g'ri loyihalayotgan buyumga ko'chirmoq, ko'pincha bezakda; uchinchidan – tabiiy shakllar yoki muayyan buyumlarga taqlid etib, shartli dekorativ shakl yaratish.

Uslublash usulda ajoyib kolleksiyalarini Iv Sen-Loran 1960-1980 yy. ("Afrikanka", "Rus balet-operalar", "Xitoy ayoli", "Ispan ayoli", "Pikasso hotirasiga" va b.) yaratgan.

Modaga nisbatan uslub-og'ishmasi ijtimoiy fenomen. K.Shanel etishi bo'yicha: "Moda o'zgaradi, haqiqiy uslub esa – xech qachon".

Dizaynerlar, moda jurnallari, televidenie va Internet tavsiya etgan ko'p uslublar orasida zamonaviy kostyum dizaynida asosiy yo'nalishni aniqlash mumkin.

Bu yo'nalishlardan biri – modani demokratizalyalanishi, o'ziga xos "modani xukumdorligidan ozod bo'lish", barchaga majburiy yagona modali namunani yo'qligi, turli mo'ljallan kiyimlarni farqlanmasligi, "yaxshi did" qonunlarni, turli buyumlarni birikmalarini, ranglar va materiallarni qo'llash qoidalarni muqarrar emasligi.

Ikkinchi yo'nalishi – buyum muhitini industrializatsiyalanishi, har bir insonga o'z fikrini erkin ifodalashga sharoit yaratish.

Jamoani oldida turgan muammolarni echishda kumak berishda dizaynni insonparvar roli kuchaymoqda, chunki u turmush tarzini shakllanishiga insonning talablari tarkibini aniqlashga ta'sir etishi mumkin, jamiyatda ekologik qiymatini tasdiqlashga imkon to'g'irib.

#### Nazorat savollari

1. Dizaynning mohiyati.
2. Dizaynning funktsiyalari tavsiflang.
3. Zamonaviy dizayn turlari .
4. Dizayn tarkibiga qanday elementlar kiradi ?
5. Dizayn loyihalash jarayonini asosiy omillarini ta'riflang.
6. Kostyum dizaynining funktsiyalari qanday?
7. Kutuyrelar ijodida dizaynning o'rni.
8. Kostyum funktsiyalarini tavsiflab bering.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Komilova X.X., Xamraeva. N.K. «Tikuv buyumlarini kontsruktsiyalash» Darslik.Toshkent 2011 y.
2. Rasulova M.K. «Tikuv buyumlari ishlab chiqarish texnologiyasi» O'quv qo'llanma Toshkent. 2011y
3. Madjidova Sh.G., Rasulova M.K. «Texnologik jarayonlarni loyixalash».Uslubiy qo'llanma. Toshkent 2011y.
4. Israilova B.G., Asadullaeva M.A. «Tikuv buyumlar texnologiyasi» fani bo'yicha tikuv buyumlarning bo'linmas operatsiyalarini ketma-ketligi to'plami. Uslubiy qo'llanma. Toshkent 2013 y.
5. A.I.Martinova, E.G.Andreeva. «Kontsruktivnoe modelirovanie odejdi» M.MGALP 2002 y. Darslik, Rus. 28 ekz.
6. X.X.Komilova, N.K.Xamraeva «Tikuv buyumlarini kontsruktsiyasi» T.o'qituvchi 2002 y. Darslik uzb. 150 ekz.
7. M.Sh.Jabbarova «Tikuvchilik texnologiyasi» T.o'q ituvchi 1994 y. Darslik. O'zb. 100 ekz.

### ***3-Mavzu: Zamonaviy kostyumda uslubiy echimlari***

Reja:

1. Klassik uslub: ingliz kostyum, Shanel, minimalizm, animal, katak – katak.
2. Romantik uslub: fantazi, xippi, retro, vintaj.
3. Sport uslub: safari, denim. Militari, dengiz, kosmik. op –art, grafiti, fitness.
4. Folklor uslub: kantri, Gaucho, Mao, ekzotika, skandinav, karmen.
5. Uslublar aralashmasi: kejual, fyuji, granj, kitch.

#### **Tayanch iboralar**

uslub, katta uslub, mikrouslub, klassik uslub, sport uslub, retro uslub, folklor uslub, romantik uslub, uslublar aralashmasi.

***Klassik uslub.*** Klassik (odmiy, ishbilarmon, elegant) uslubiga modaga deyarli sig'inmaydigan, turg'un vaqt davomida tanlangan, deyarli o'zgarmaydigan uslub. Klassik uslub – chiziqlarni sipoligi va oddiyligi, bichimni mantiqaligi. Odatda, klassik uslubdagi buyumlar – bu ko'zga tashlanmaydigan juda oddiy siymo, e'tiborni uziga sifati bilan tortadi. Klassik uslubini asosida, uni ba'zi elementlarini kombinatsiya qilib, har xil mikrouslublar shakllanadi. Klassik uslubga libosning barcha elementlarini kiritish mumkin. Yangi klassika odatiy shakllarning sipoligini yuqotdi – modellar yumshoq, tabiiy va oliyjanob. Ammo, avalgiday klassika detallarni minimumi bilan farqlanadi. Ko'pincha materiallar erkaklar modasida o'zlashtirilgan – bu reps, gabardin, poplin va flanel, yupqa klassik yo'l –yo'l va "yolochka", yumshoq jun gazlamalari. Uslub favoriti – shim va yubka, nimcha bilan klassik kostyum.

***Ingliz uslub.*** Kiyimda klassik uslubni tipik namunasi – ingliz uslub. Bu uslub uch asr maboynida rivojlanadi va modani injiqligiga qaramasdan o'z ommabopligini yo'qotmadi.

“Ingliz kostyum” tushunchasi XU111 asrda pado bulgan. Aynan shu vaqtda Angliyada shakli va rangi bo'yicha sipo kiyim uslubiy yuzaga kelgan.

XU111 asrni 80–chi yillarida otda yurish kostyum juda ommabop bulgan: movutdan frak, redingot – etagi to'g'ri ustki kiyim, tor pantolonlar, qaytarmali etiklar. Bu odmi kostyumni ingliz kostyumi deb atashadigan bo'ldi.

Ingliz uslub ayollar kostyumiga xam ta'sir etdi: silueti o'zgardi, ayollar kattiq moslamalarni (karkaslarni) kiymaydigan bo'ldi, bu kiyimni qulay va oddyiroq qildi. XIX asrni 80–chi yillarida ayollar modasiga erkaklar kostyuminini bichimini eslatadigan kostyum kirdi: astarli jaket va to'g'ri shaklli taxlamali yoki taxlamasiz yubka. Shunday kostyumni odatda erkak ustalari tikishgan. Ingliz kostyumi ko'zga tashlanmaydi, shuning uchun yorqin emas, yo'l –yo'l yoki kaktak –katak gazlamalari qo'llanadi.

*Shanel uslubi.* Koko Shanel uslubi – bu erkin ayolnini elegant –amaliy uslubi. Tviddan kostyumlar, qora duxobadan kichkina kuylaklar va yaltiroq bashang liboslar XX asr klassikasi deb hisoblanadi. Frantsuz dizayneri Gabriel Shanelning nafis bichimi ayollarni korsetlardan voz kechishga va shimni go'zallik ramzi qilishni majbur qildi. Bu uslub oddiy, go'zal va internatsional. Madam Shanel kostyumida o'z fikirini amalga oshirdi: “Men modaga qarshiman, chunki u tez utib ketadi. Baxor kelgani uchun kiyimlarni tashlanganini ko'rishga toqatim yo'q”.

Shanelning kostyumi to'g'ri yoki nim yopishgan siluetli, bel chizig'i tabiiy xolda va o'rta kenekda o'tqazma eng, yoqali yoki yoqasiz, qopqaqli qoplanma chuntakli, yirik tugmali. Bezakka maxsus e'tibor beriladi: engning shlitsasida uch tugmadan kam bo'lmasligi kerak, zarli yoki kumish, jun, to'r tasma. Shanel gazlamalari – tvid, djersi. Shanel buyumlarni klassik uzunligi – tizzani sal berkitadi. Nafis elementlari tuqalar, zanjirli belbog'lar, brelokklar, bantlar, tug'nog'ichlar. Shanel ilk bor ikki rangli tuflilarni yaratdi, sumkalarni zanjirlar bilan bezatdi, eraklar smokinigini ayollar modasigi kiritdi va kichkina qora ko'ylakni va sviterni kiritdi. Zamonaviy modada Shanelning sodiq davomchisi – mashhur dizayner Karl Lagerfeld.

*Minimalizm uslubi.* Minimalizm uslubi yoki *purizm*, oddiy etilganda – soddalik, odatda davrlar qirrasida ruy berdi, qachonki eskisi jonga tekkan, yangisi esa xali yaratilmagan. Aynan shu vaqtda jamoada “toza varaqdan xayotni boshlash” talab paydo bo'ladi. Turli davrlarda va mamlakatlarda minimalizm o'ziga xos bo'lgan. Bu uslub komfortlikni xoxlaydi, uning shiori: qanchalik kam bo'lsa, shunchalik yaxshi! Bu uslubda oddiy bichim, rang palitrasi ochiq, qora, kul va oq ranglar ko'p qo'llanadi; tabiiy ranglar kiyimni har xil qilib ko'rsatadi. Bu uslub ayollarga taqinchoqlarni kiyishni, jingala sochni, aksessuarlarni kiyishni man etgan, modaga qora tuflini kiritgan. Siluet pret–a–porte moda tendentsiyalariga rioya qilgan. Bu shaxar uslubda yumshoq siluetlar, tukilib turadigan va qalin materiallar (jun krep va krep –gabardin), neytral va pastel ranglar mavjud.

*Animal uslub* kiyimda charm va mo'ynani qo'llash. Animal uslub mododadan chiqmaydi, demak u klassik deb hisoblansa bo'ladi. Zamonaviy moda bu uslubda xayvonlarning charmini imitatsiya qiladigan materiallar qo'llanadi. Animal uslubi kundalik kiyim modasi emas.

Bugun tabiiy mo'yna va charm dabdalik ramzidir. Sunniy charm va mo'yna tabiiylaridan qolishmaydi. Bu uslubda murakkab bichimlar bo'lmasligi lozim. Animal uslubida ansambl sidirg'a buyumlar bilan elegant kurinadi.

*Katak–katak* uslubi. Katak–katak kiyimga moda kiradi va ketadi, ammo doimo qaytadi. Katak–katakni uzoq xayoti klassik uslubga kiritishga imkon beradi. Kundalik modani yangi siymosi – “*shotlandka*”, yorqin taxlamali katak–katak *kilt* yubkalari, djemperlar va beretlar. Kundalik kiyimda mayda katakli–*vishi* qo'llanishi mumkin. Optimal variant – oq fon, qizil katak–katak. Katak–katak materiallar sidirg'a materiallar bilan qo'llanilishi yaxshi effekt beradi. Surilgan katak–katak “tovuqning panjachasi” naqshni Koko Shanel kiritgan.

*Romantik uslub* – bu fantaziya, izlanish, xotira sohasi, u tarixiy kostyumga intiladi va undan shakl, bichim va dekorativ bezak o'zlashtiriladi. Romantik libos



qomadni go'zalligini va ayollarninig an'anaviy suzilmoqligini, sentimentalligini, sezuvchanligini namoyon etishi lozim. Bu uslubning asosiy silueti – X–simon, yumshoq va main chiziqlar bilan. Minimalistik uslub man etgan bezaklar – drapirovkalar, dekolte, koketkalar, qo'sh burmalar, volanlar, ryushlar, jabo, bantlar, to'rlar, buflar, manjetlar rulikdan izmalar romantik liboslarda keng qo'llanadi. Bu uslubda yorqin ranglar libosda qo'llanadi. Poyabzal loklangan charmda va kimxobdan baland poshnali "kemacha" tuflilar. Uzun yoki kalta qo'lqoplar. Murakkab soch turmagi. Vualli shlyapalar, nozik taqinchoqlar, shifondan sharflar. Bu uslub kechi va bayramona kiyimlarida qo'llanadi.

*Fantazi uslubi.* Zamonaviy moda romantikaga o'z kurinishini namoyon etadi. Fantaziya uslubi avangard uslubidan farqi – zamonaviy modani ifodasi bo'lmaydi. Romantik uslub – bu utmish va kelajakni fantastik siymolari. Fantazi uslubini asosiy xususiyatlari: noreallik, ertaklik, syurrealilik, ajablik, jasurlik. Bu uslub tomashabinni xayratga soladi. Fantazi liboslarni silueta har xil va o'zgacha. Bezak sifatida bantlar, strazlar, munchoqlar, charm va zamsha, kashta va b. qo'llanadi. Fantazi uslubi dizaynerning ijodini cheklamaydi.

*Xippi uslubi.* XX asrni 60–chi yillarda xippi modani boshdan oyoqqa og'dardi. Endi modaning qoidasi–xech qanday qoida bo'lmasin. Bu xippi o'zgacha psixologiyasi – "gullar bolalarini". Ammo, zamonaviy modada 60–chi yillardagi kabi ma'naviy va ideologik intilish yo'q. Zamonaviy dizaynerlar faqat cheklashni mutlaqo yo'qligi, kiyim tassavur chegarasidan chiqishi kerak. Xippilarni libos tuplamida kashtali djinslar, o'zgacha belbog'lar, ola–bula koftalar va topiklar, to'qilgan yoki qo'roqli katta sumkalar, tunika yoki uzun, beli yuqori kutarilgan yupqa ko'ylak, ochiq shippaklar, kosmetikani minimumlikligi, to'g'ri tashlangan sochlar. Xippilar orasida dehqonlar kiyimi – taxlamali uzun yubka keng tarqalgan. Munchoqlardan fenechkalar, bandanalar, charmdan kurtkalar, qo'sh burmali jaketlar va dumaloq yoki kvadratli to'qilgan linzali kichkina ko'zoynalar keng qo'llanadi. Zargar buyumlar meksikali, hind yoki marokash melxiordan qilingan zargar buyumlar. Bilakuzuklar, uzuklar, qo'loq va burun uchun xalqalar. Tinchlik ramzlari, mushtum, In–Yan va boshqa sharq ekzotikasi ramzlari marjonlar bilan bezatilgan.

*Retro uslubi.* Utmish modasi – zamonaviy dizaynerlarini ijodida ilxomlanish manba. Retro uslubi – zamonaviy modada utmish mavzularni, detallarni, modellashtirish usullarni qo'llash yo'nalishi, ammo ularni takrorlanmasligi.

Har bir tarixiy davr modasi o'ziga xosligi bilan ajraladi, ularni o'z retro siymosi bor. Retro moda utmish modasini nusxasi emas, balki uni stilizatsiyasi bo'lishi kerak.

*Vintaj usuli.* Utmishga asoslangan romantik modada yana bir yo'nalish vintaj (vintage). Bu uslubda utgan yillardagi o'ziga xos liboslari mavjud, ya'ni popukli sumkalar, to'qilgan shollar va b. Vintaj kolleksiya modellari benuqson tarbiyalangan, qirolicha qomatli, nozik va elegant xaqiqiy ledilarni eslatadi. Bu uslubning asosiy elementlari – to'g'ri silueta, kashta va to'rni qullanishi, shaklni sipoligi.

Mutaxassislar romantik uslubni rivojlanishini prognozlashmoqda. U uniseks modani asta–sekin siqib chiqarmoqda. XXI asrda ayollarning nazokatini namoyon qiladigan, xarakatiga mayinlik beradigan kiyim birichi qatorga chiqadi. Taxmin buyicha moda tanani berkitadi. Ertaklar va tasavvuf ilxom manbasi bo'ladi. Dengiz, okean, sexir, tasavvuf, erotika, musiqa, sevgi, parvoz va b. romantik yo'nalishni belgilaydigan eng ommabop mavzular bo'ladi.

**Sport uslubi.** Sport uslubi qulay va go'zal sport liboslarni modaga ta'sir etdi. Xozir sport uslubida libosning barcha elementlari qilinishi mumkin: uy kiyimidan bashang kostyumigacha. Eng oddiy sport uslubining varianti kiyimda qoplonma chuntaklar, pogonlar, furnitura, koketkalar, xlyastik va patalar va b. Sport uslubiga bir necha mikrouslublar kiradi.

**Safari uslubi.** Safari – bu sport uslubining eng ommabop yo'nalishi. “Safari” uslubi Afrikada ingliz xarbiylar ov safarida kiyigan liboslariga asoslangan. Bu uslubni targ'ibotchisi 1980–chi yillarda Iv Sen–Loran bo'lgan. Safari uslubdagi libos – bu asosan zig'ir, ip, aralashma va djins gazlamalardan tikilgan kiyim. Safari uslubda barcha echimlari qo'laylikka qaratilgan: o'rtasi taxlamali qo'p qoplonma chuntaklar, uzun etiklar, shlemlar, charm belbog'lar, elkasiga osilgan sumkalar, xaki va qum rangliar. Bu uslubda tipik detallari portfel–chukntaklar yoki pogon va uqdonlar bo'lgan. Yuqorida etilgan ranglar qatorida safari uslubida zirvorlar rangi, sarig'ich–yashil, nuxat, yashil limon ranglar qo'llangan. Sudralib yuradigan hayvonlarning terisiga o'xshaydigan animal bosmalar va rasmlar keng qo'llanadi. Gannover moda eksperti Tuula Zalo safari uslubini zamonaviy yo'nalishini shunday tavsiflaadi: “Yangi safari uslubidagi liboslar yangi gazlamalaridan va animal bosmalarga asoslanadi. Bichimiga esa deyarli ahamiyat berilmaydi”.

**Denim yoki djins uslubi.** Bu uslub boshidan doimo ommabop, hashamatli, yoki oddiy. Djins uslubida asosiy rang– to'q–kuk. Ilk bor ishchilar uchun kiyim bo'lib, xozir esa kuk denim “ot kutyur” va “pret–a–porte”da keng namoyish qilinadi. Indigoga bo'yalgan ip gazlamasi dag'alligini yo'qotdi. Yangi texnologiyalar yordamida yangi xususiyatlarga ega bo'ldi. Bugun djins uslubi sport uslubidan chiqib, bashang kiyimiga ham kirdi. Zamonaviy denim yaltiroq qoplonma va payetkalar bilan bezatilgan, kamalak ranglarga bo'yalgan.

**Militari uslubi.** Militari–luk – 70–80–chi yillarda sport va dam olish uchun kiyimlarida xarbiylashgan uslub. Bu uslubda ajralib turadigan detallari – pogonlar, pat va kopqoklar, uqdonlar, xaki rangli gazlamalar, xarbiy botinkaga uslublangan poyabzallar. Xarbiy formaga moda doimo qaytadi, chunki u uniformani namoyish etadi. Militari uslubda dizaynerlarni qiziqtiradigan xossa – uning utilitarligi va teatralligi. Bu uslub tartib va jasorat ramzi. 2001–2002 yyillarda militari uslubi keng tarqalgandi. Bu davrdagi militari modasi kuproq teatral tomonga intilgandi. Iv Sen–Loran Moda Uyi gusarlarni mundirlariga o'xshagan paltoni taqdim etishdi. Dloche va Gabbana elkani epoetlar bilan bezatishgan, ko'kragini esa zargorli buyumlar va oltin tugmalar bilan bezatishgan.

**Dengiz uslubi.** Bu uslub ilk bor 1880 yillarda bolalar kiyimida paydo bo'lgandi. Matros kiyimini eslatadigan bolalar kiyimlari juda ifodali va qo'lay bo'lgan. Sung bu detallar ayollar modasiga kirgan. Dengiz uslubi bugun ham o'z

muhimligini yo'qotmadi. Bu uslubni farqlaydigan detallari kvadrat shakldagi katta yassi yoqa va oq–kuk tasmalar. Dengiz uslubda tuq–kuk bleyzerlar, oltin tugmalar, oq shimlar, furajkalar va b. mavjud. Odatda bu uslubda yozgi kiyim yaratiladi. Unga taxlamali yubka yoki shim, keng bluza, matros yoqali jaket, yul–yul mayka yoki bluzka kiradi. Bu liboslarda asosan tabiiy zig'ir va ip gazlamalari qo'llanadi.

*Kosmik uslub.* Kosmik uslubni asosan kosmosni eslatadigan futuristik turdagi materiallar qo'llanadi. Mavzuni ifoda etish uchun sport gazlamalari (elastik tolali sintetik gazlamalar) ham qo'llanadi. Texno gazlamalar – bu yuqori texnologiyali gazlamalar, ular hashamatli ko'rinadi va kiyilganda optimal komfortni bahsh etadi. Gazlamaning fakturasi ifodali bo'lgani bois, rangi va bichimiga deyarli ahamiyat berilmaydi. Nyuanslar asosiy bo'ladi – bezak oq va kumish ranglar. Qora rang kam uchraydi. Siluetlar oddiy tug'ri va tor. Ajralib turadigan uslubiy vositalar – yoqa o'mizini sipo variantlari (“kemacha” shaklida, tik yoqa va baland yoqa–truba). Kosmik uslubida poyabzal o'zgacha ma'noga ega – “lunoxod” turidagi, tumshig'i dumaloq, qalin taglikli yoki tekstil gazlamalardan etiklar.

*Op–art uslubi.* Gazlamalarni optimistik bosmalari op–art uslubini sport yo'nalishiga kiritishiga imkon berdi. Op–art uslubi (*optical art* – optik san'at) ilk bor 60–chi yillarda modaga kirdi. Tasviriy san'atda op–art oqimining asoschisi vengriya rassosmi Viktor Vazarelli bo'lgan. Bu uslubning o'ziga hosligi – yassi va fazoviy figuralarni tasavvur qilinishiga asoslangan ko'z aldanishlar. Optik rangtasvirda oddiy bir xil elementlar shunday joylanadi, qachonki shakl tarkibi yaxlit tasavvur etilmaydi, ya'ni ko'z aldanadi. “Sof rang va sof shakl o'ziga butun dunyoni sig'dirish mumkin” – hisoblagan V.Vazarelli. Op–art uslubidagi liboslarda geometrik, abstarakt naqshlar, yorqin, bir–biri bilan kontrastli rangli gazlamalar qo'llanadi (masalan oq–qora ranglar birikmasi).

*Graffiti uslubi.* Bu yoshlar uslubini 1960 yildagi op–art uslubining davomi. Graffiti (italian *gruffiare* - tirnamoq) – bu devorlarda rasm yoki yozuvlardan badiiy kompozitsiyani yaratadigan “kucha san'ati”. Pikasso graffitida odamning yuzini va qomatini ifodalash uchun minimal miqdorda grafik elementlari qo'llanadi degan. Bu uslubning asosiy xossasi –jins yoqi yoz kiyimida shaxar folklori tasvirlagan kashta yoki shaxar folklori mavzudagi, matn, yozuvlar va bolalar rasmlarning imitatsiyasi bo'yicha bosma.

*Fitnes uslubi.* Fitnes – bu sport bilan shug'ullanish ma'nosini bildiradi. Ohirgi payitlarda moda yaratuvchilari sport kostyumi g'oyalariga nazarini tashlashgan. Ular velosipedistlar, suzuvchilar, gimnast kostyumlariga o'z e'tiborini qaratishdi. Fitnes uslubidagi liboslarida elastik materiallar, sport kostyumdan o'zlashtirilgan lampaslar, tasma “molniyalar” va yorqin kontrast rang birikmalari qo'llanadi.

*Folklor uslubi.* Folklor uslubi – bu milliy kostyumlarning elementlarini qo'llaydigan uslub. 1950 yillardan boshlab qishloq uslubini “*kantri uslub*” ommabop bo'lgandi, 1990 yillarda bu uslub etno–miks shaklida tarqalgandi. Folklor uslubi bugun – bu faqat kiyimni bezagigina emas, balki elementlarni, shaklni, buyumlarni zamonaviy modada o'zlashtirish. Folklor uslubida kiyim yaratish – bu milliy kiyimni nusxasini yaratish emas. Gazlamani tanlash, uning

rangini, merejka kashtasi, naqshli tasma, atlas lentalar, bichim va detallarni qo'llanishi buyumni folk uslubiga mansubligini ko'rsatadi. Shartli folklor uslubiga ingliz kantri, amerikalik vestern va turli etno–mikslar kiradi.

*Kantri uslubi.* Kantri uslubi XX asrni boshida vujudga keldi. Bu atama malakat va qishloqni ifodalaydi. Bu uslub shaxardan tashqariga sayr uchun kiyiladigan kiyim nazarda tutiladi. Masalan, kantri uslubida tviddan tikilgan sport kiyimi, yupqa jun gazlamasidan tikilgan palto bo'lishi mumkin. Odatda kantri uslubdagi kiyimga uzun sharflar, to'qilgan shapkalar, etikka tiqilgan shimlar qo'shimcha kiyiladi. Ayollar yubkalar, yopinchoqlar, shlyapalar, tufli va paypoqlar kiyishi mumkin. Kantri ulubida muhim detal – gulli, yul–yul va katak–katak naqshli tekstil. Kostyum koloritida tabiiy ranglar qo'llanadi: yashil, sariq, moviyosmon va suv, daraxt, kuzgi yaproqlar va b.

*Gaucho uslubi.* Bu uslub 1960 yillarda modaga kirgan folk uslubining bir varianti. Gaucho uslubi Janubiy Amerikadagi chorvodorlar–gaucho kiyimlaridan o'zlashtirilgan: charm va zamsha kurtkalar, charmdan qilingan popuk va zaklepka bilan bezatilgan shimlar, nimchalar. Gulli ko'ylak kovboy etiklari bilan, short bilan romantik bluzkalar – bu gaucho uslubdagi ijod qiladigan dizaynerlarni zamonaviy modellaridir. Zamonaviy modada gaucho uslubi naqshlar, materialar, bo'yoqlar va shakllar o'zgacha birikma.

*Yapon uslubi.* XX asr oxirida va XXI asr boshida ommabop bo'lgan etnouslub. Bu uslubni mantiqiylik va bekam–ko'stlik tavsiflaydi. Libosdagi tipik detallari: yapon kimonosini eslatadigan bichim, ierogliflar, “obi” belbog'i, yog'och taglikli getani eslatadigan oyoq kiyim.

#### Nazorat savollari

1. Klassik uslubdagi mikrouslublarni tavsiflang.
2. Romantik uslubdagi mikrouslublarni tavsiflang.
3. Sport uslubdagi mikrouslublarni tavsiflang.
4. Folklor uslubdagi mikrouslublarni tavsiflang.
5. Uslublar aralashmasidagi mikrouslublarni tavsiflang.
6. Zamonaviy modada qanday uslublar mavjud?
7. Kantri mikrouslubini tavsiflang.
8. Militari mikrouslubni tavsiflang.
9. Safari mikrouslubni tavsiflang.
10. Xippi mikrouslubni tavsiflang

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Komilova X.X., Xamraeva. N.K. «Tikuv buyumlarini kontsruktsiyalash» Darslik. Toshkent 2011 y.
2. Rasulova M.K. «Tikuv buyumlari ishlab chiqarish texnologiyasi» O'quv qo'llanma Toshkent. 2011y
3. Madjidova Sh.G., Rasulova M.K. «Texnologik jarayonlarni loyixalash». Uslubiy qo'llanma. Toshkent 2011y.

4. Israilova B.G., Asadullaeva M.A. «Tikuv buyumlar texnologiyasi» fani bo'yicha tikuv buyumlarning bo'linmas operatsiyalarini ketma-ketligi to'plami. Uslubiy qo'llanma. Toshkent 2013 y.
5. A.I.Martinova, E.G.Andreeva. «Kontsruktivnoe modelirovanie odejdi» M.MGALP 2002 y. Darslik, Rus. 28 ekz.
6. X.X.Komilova, N.K.Xamraeva «Tikuv buyumlarini kontsruktsiyasi» T.o'qituvchi 2002 y. Darslik uzb. 150 ekz.
7. M.Sh.Jabbarova «Tikuvchilik texnologiyasi» T.o'qituvchi 1994 y. Darslik. O'zb. 100 ekz.

**4-Mavzu: Yagona buyum, komplekt, ansambl va kolleksiyani loyihalash asoslari.**

Reja

1. Yagona buyumlar loyihalash zaruriyatiga sabablar.
2. Ansambl atamasining mohiyati.
3. Ansamblning yaxlitligi.
4. Komplekt atamasining mohiyati.
5. Komplekt yaxlitligi.

Adabiyotlar:

1. Komilova X.X., Xamraeva. N.K. «Tikuv buyumlarini kontsruktsiyalash» Darslik. Toshkent 2011 y.
2. Rasulova M.K. «Tikuv buyumlari ishlab chiqarish texnologiyasi» O'quv qo'llanma Toshkent. 2011y
3. Madjidova Sh.G., Rasulova M.K. «Texnologik jarayonlarni loyihalash». Uslubiy qo'llanma. Toshkent 2011y.
4. Israilova B.G., Asadullaeva M.A. «Tikuv buyumlar texnologiyasi» fani bo'yicha tikuv buyumlarning bo'linmas operatsiyalarini ketma-ketligi to'plami. Uslubiy qo'llanma. Toshkent 2013 y.

**TEST SAVOLLARI**

- 1. Dizayn – bu**
  - a. \*san'at turi
  - b. kasb
  - c. faoliyat
  - d. falsafa
- 2. Dizayn qanday san'at nuri?**
  - a. \*sanoat san'ati
  - b. tasviriy san'at
  - c. xaykaltaroshlik
  - d. badiiy grafika
- 3. Qachon ilk bor dizayn paydo bo'lgan?**
  - a. \*XIX asrda
  - b. antik davrda
  - c. o'rta asrda
  - d. qadimiy zamonda
- 4. Dizayner - bu**
  - a. \*san'at arbobi

- b. faylasuf
- c. xunarmand
- d. fan arbobi

**5. Dizaynni paydo bo'lish sababi**

- a. \*mahsulotni ommaviy ishlab chiqarilishi
- b. istemolchining talabi
- c. ayrim shaxsning talabi
- d. qo'l mehnatga qaytish

**6. Ijtimoiy dizayn - bu**

- a. \*noyob buyumlarni loyihalash
- b. ommabop buyumlarni loyihalash
- c. buyumlarni qo'lda ishlab chiqish
- d. mahsulotni ommaviy ishlab chiqarilishi

**7. Buyumning qaysi xususiyatlariga dizayner e'tibor berishi lozim?**

- a. \*estetik, ergonomik va utilitar xususiyatlariga
- b. faqat estetik xususiyatlariga
- c. faqat utilitar xususiyatlariga
- d. faqat ergonomik xususiyatlariga

**8. Dizayner nimaga e'tibor etishi kerak?**

- a. \*buyumni texnologik, estetik va konstruktiv ko'rsatkichlariga
- b. buyumni faqat texnologik ko'rsatkichlariga
- c. buyumni faqat konstruktiv ko'rsatkichlariga
- d. buyumni faqat estetik ko'rsatkichlariga

**9. Dizayner mutaxassisligini paydo bo'lishiga nima sabab bo'ldi?**

- a. \*buyumni ommaviy ishlab chiqish
- b. buyumni har bir kishi uchun tikilishi
- c. buyumni qo'lda tikilishi
- d. istemolchining talabi

**10. Dizayn tarkibiga nima kiradi?**

- a. \*barcha javoblar to'g'ri
- b. dizayn - faoliyat sub'ekti
- c. dizayn - faoliyat ob'ekti
- d. muhit

**11. Dizayn maqsadi**

- a. \*barcha javoblar to'g'ri
- b. insonni moddiy muhitini gumanizatsiyalash
- c. davr estetik qoidalariga mosligi
- d. davr etik qoidalariga mosligi

**12. Dizaynerni kasbiy fikirlashini o'ziga xosligi nima kirmaydi?**

- a. \*bir xildalik
- b. siymolik
- c. sistemalilik
- d. innovatsionlik

**13. Sistemalilik dizaynerni kasbiy fikirlashida nimani ko'rsatadi?**

- a. \*siymolik birlashib, barcha bosqichlarda bo'linmas birlikni yaratadi

- b. dizayn-dasturni
- c. EHM uchun datsumni
- d. loyihani bajarish tartibini

**14. Innovatsionlik dizaynerni kasbiy fikirlashida nimani ko'rsatadi?**

- a. \*dizayn ob'ektlari orqali yangilikni kiritish
- b. kostyum tarixini o'rganish
- c. xalq kostyum tarixini o'rganish
- d. retro modani o'rganish

**15. Siymolik dizaynerni kasbiy fikirlashida nimani ko'rsatadi?**

- a. \*voqelikni siymoli aks etish
- b. tarixiy kostyumni o'rganish
- c. xalq kostyumni o'rganish
- d. retro modani o'rganish

**16. Dizayn funksiyasi emas**

- a. \*buyumni har bir kishi uchun ishlash
- b. marketing shakli
- c. koxonalar va istemolchini orasida kommunikatsiya shakli
- d. buyumlarni tashqi ko'rinishiga prestij ramzini berish

**17. Dizaynni paydo bo'lishiga nima ta'sir etmadi?**

- a. \*xunarmandchilikni rivojlanishi
- b. sanoat inqilobi
- c. buyum muhitini shakllantirish soxasida badiiy vaziyatda inqirozi
- d. mashinada ishlab chiqarilishni va estetik ko'rsatmalarni ehtiyojlarini kesilishi

**18. Dizaynni rivojlanishiga nima sabab bo'lmagan**

- a. \*xunarmandchilikni rivojlanishi
- b. san'at
- c. mahsulotni ommaviy ishlab chiqarilishi
- d. ommaviy ong

**19. Kostyum funksiyasi emas**

- a. \*yoshiga oidlik
- b. etsetik
- c. belgi
- d. himoya

**20. Qaysi kiyim himoya funksiyani bajaradi?**

- a. \*maxsus kiyim
- b. bashang kiyim
- c. tantanaga oid kiyim
- d. marosimga oid kiyim

**21. Kiyimda nima issiqlikni saqlamaydi?**

- a. \*buyumni kontsruksiyasi
- b. vatin
- c. sintepon
- d. ko'p qavatlik

**22. Iqlim sharoitidan nima saqlamaydi?**



- a. \*byumning konstruksiyasi
- b. kiyim assortimenti
- c. kiyimni qavati
- d. qo'llangan material

**23.Kostyumni belgi funksiyasi emas**

- a. \*buyumni ishlab chiqarish texnologiyasi
- b. milliy alomati
- c. mintaqaviy alomati
- d. diniy alomati

**24.Kostyumni belgi funktsiyasi nima ifoda etmagan?**

- a. \*buyumni konstruksiyasi
- b. rang
- c. material
- d. bezaklar

**25.Kostyumni belgi funktsiyasi nima aks etmagan?**

- a. \*buyumni ishlab chiqarish texnologiyasi
- b. ramziy elementlar
- c. rang
- d. dekor

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Komilova X.X., Xamraeva. N.K. «Tikuv buyumlarini kontsruktsiyalash» Darslik.Toshkent 2011 y.
2. Rasulova M.K. «Tikuv buyumlari ishlab chiqarish texnologiyasi» O'quv qo'llanma Toshkent. 2011y
3. Madjidova Sh.G., Rasulova M.K. «Texnologik jarayonlarni loyixalash».Uslubiy qo'llanma. Toshkent 2011y.
4. Israilova B.G., Asadullaeva M.A. «Tikuv buyumlar texnologiyasi» fani bo'yicha tikuv buyumlarning bo'linmas operatsiyalarini ketma-ketligi to'plami. Uslubiy qo'llanma. Toshkent 2013 y.
5. A.I.Martinova, E.G.Andreeva. «Kontsruktivnoe modelirovanie odejdi» M.MGALP 2002 y. Darslik, Rus. 28 ekz.
6. X.X.Komilova, N.K.Xamraeva «Tikuv buyumlarini kontsruktsiyasi» T.o'qituvchi 2002 y. Darslik uzb. 150 ekz.
7. M.Sh.Jabbarova «Tikuvchilik texnologiyasi» T.o'qituvchi 1994 y. Darslik. O'zb. 100 ekz.
8. P.P.Koketkin va boshqalar «Odejda» 2002 y. o'quv qo'llanma. Rus. 24 ekz.
9. V.E.Murigin, V.E.Chalenko «Osnovi funktsionirovaniya texnologicheskix protsessov shveytnogo proizvodstva» M.Nauka 2001 y. Darslik. Rus. 25 ekz.
- 10.X.X.Samarxodjaev «Tikuv korxonalari uskunalari» T. o'qituvchi 2001 y. O'quv qo'llanma. O'zb. 300 ekz.

11. Yu.A.Domojirov «Vnutriprotsessniy transport shveynix predpriyatiy» M.Legpromizdat 1991 yyu Darslik. Rus. 92 ekz.
12. Engil sanoat mahsulotlari texnologiyasi yo'nalishi bo'yicha dissertatsiyalar va ilmiy hisobotlar
13. Xasanboeva G.K.. Shomansurova M. , Maxsus kompozitsiya – T. : Yangi asr avlodi, 2007.
14. Svetlova L.P. Azbuka ornamenta – M.: 1998.
15. Berdnik T.O. Osnovo' xudojestvennogo proektirovaniya kostyuma i eskiznoy grafiki (seriya "Uchebniki XXI veka"), Rostov-na-Donu : Feniks, 2001.
16. I.A.Rozenson Osnovo' teorii dizayna. Uchebnik dlya vuzov – SPB.: Piter, 2007.
17. A.B.Gofman Moda i lyudi Novaya teoriya modo' i modnogo povedeniya – M.: Agentstvo «Izdatelskiy servis», «Izdatelstvo GNOM i D», 2000.
18. Moda jurnallari.
19. [www-mode.ru](http://www-mode.ru)
20. [stile.asra.ru](http://stile.asra.ru)
21. [kroyka.ru](http://kroyka.ru)
22. [www.glamurneko.ru](http://www.glamurneko.ru)
23. [G'G'nasebya.ru](http://G'G'nasebya.ru)[G'womtns-fashion](http://G'womtns-fashion)
24. [osinka.ru](http://osinka.ru)
25. [G'G'modellar.fashiontime.ru](http://G'G'modellar.fashiontime.ru)[G'](http://G')
26. [G'G'www.stylemania.ru](http://G'G'www.stylemania.ru)[G'](http://G')
27. [G'G' www.mode](http://G'G'www.mode) [centrum.ru](http://centrum.ru)